


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor

Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi  
Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun  
Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sul-tonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)  
Ma'mun Universiteti NTM

**FILOLOGIYA**

<b>1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
<b>2. Murodov G‘ayrat Nekovich</b> EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
<b>3. Чупонов Отаназар Отажонович</b> РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
<b>4. Худайбергенова Умида Комилджановна</b> СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
<b>5. Pardayeva Sojida Ahmatovna</b> WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
<b>6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна</b> МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
<b>7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna</b> SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
<b>8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna</b> INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
<b>9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна</b> СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
<b>10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
<b>11. Абдиева Камола Аслидин кизи</b> ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

**IQTISODIYOT**

<b>1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich</b> SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
<b>2. Кипкеева Асият Магомедовна</b> ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
<b>3. Annazarova Barno Rustamovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

## PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI  
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**  
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишниковна Дина Рафаиловна**  
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ  
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ  
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**  
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY  
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**  
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ  
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО  
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**  
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI  
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**  
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**  
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK  
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI  
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**  
GENDER IJTIMOYILASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING  
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

## TIBBIYOT

- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**  
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS  
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**  
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ  
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

## TARIX

- 1. Mustafa Demirci**  
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL  
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED  
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**  
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И  
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**  
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY  
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**  
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI  
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**  
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ  
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**  
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID  
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**  
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY  
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”  
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ  
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

**Abdalov Umidbek Matniyazovich,**

PhD., dots. Ma'mun universiteti


Iqtisodiyot va gumanitar fanlar fakulteti dekani

E-mail.: umid\_abdalov@mail.ru

**Pulatov Muhridin,**

Ma'mun universiteti talabasi

## XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID BA'ZI MASALALAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515791>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XI-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlati aholisining ijtimoiy xayoti va iqtisodiy munosabatlariga oid ma'lumotlar jamlangan, tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Bundan tashqari Xorazmshohlar davlatining o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan shaharlar hayoti haqidagi ma'lumotlarni ham to'planganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zilar:** Gurganch, "Mu'jam al-buldon", Yoqut Hamaviy, Hazorasp, Otsiz, Takash, sulton, Dashti Qipchoq, Darband, etnomadaniyat.

**Abdalov Umidbek Matniyazovich,**

Ph.D., Associate Professor,

Dean of the Faculty of Economics and

Humanities at Mamun University

E-mail.: umid\_abdalov@mail.ru

**Pulatov Muhridin,**

Mamun University student

## SOME ISSUES RELATED TO SOCIO-ECONOMIC RELATIONS IN THE STATE OF THE KHOREZMSHAKHS

### ABSTRACT

In this article, information on the social life and economic relations of the people of Khorezmshahs in the XI-XIII centuries is collected and analyzed on the basis of historical sources and literature. In addition, it is important to collect information about the life of the cities, which are the main indicators of the socio-economic development of the Khorezmshah state at that time.

**Keywords:** Gurganch, "Mu'jam al-buldon", Yakut Hamavi, Hazorasp, Atsiz, Takash, sultan, Dashti Kipchak, Darband, ethnoculture.



**Абдалов Умидбек Матниязович**

PhD., доцент

Декан факультета экономики и гуманитарных наук Университета Мамуна

E-mail.: umid\_abdalov@mail.ru

**Пулатов Мухриддин,**

Студент университета Мамуна

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ОТНОШЕНИЯМИ В ГОСУДАРСТВЕ ХОРЕЗМШАХОВ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников и литературы собраны и проанализированы сведения о общественной жизни и экономических отношениях народа хорезмшахов в XI-XIII веках. Кроме того, важен сбор информации о жизни городов, которые являются основными показателями социально-экономического развития государства Хорезмшахов того времени.

**Ключевые слова:** Гурганч, «Муджам ал-булдон», якут Хамави, Хазорасп, Ациз, Такаш, султан, Дашти Кипчак, Дарбанд, этнокультура.

### KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Buyuk Xorazmshohlar davlati (1097-1231) O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq tarixida ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy jihatdan rivojlanishida alohida ajralib turadi. Mazkur jarayon yozma manbalar va ilmiy nashrlarda o'z ma'nosini topgan. Xorazmshohlar davlati O'rta Osiyoda rivojlangan o'rta asrning "oltin" davrida faoliyat olib borishi jihatidan O'zbekiston tarixida muhim o'rin egallaganligini alohida qayd qilish joiz.

XII-XIII asr boshlari davrida faoliyat olib borgan shaharlar madaniy-xo'jalik markazlari vazifasini bajarishida antik davri aholi markazlari asosida rivojlangan shaharlarning topografik tuzilishida saqlanib qolgan bo'lsa, ularning me'moriy tuzilishidagi o'zgarishlar mudofaa majmuasida aks etgan.

Xorazmshohlar-Anushteginiylar davrida Gurganj musulmon sharqidagi eng yirik shaharlardan biri bo'lgan. Mo'g'ullar yurishi arafasida Gurganj (Urganch) shahri Amudaryoning (Daryolik) ikki sohili bo'ylab joylashdi. Shaharni daryoda qurilgan inshootlar, to'g'onlar suv toshqinlaridan saqlagan.

### METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Buyuk Xorazmshohlar tarixi tadqiqotchisi Z.M.Buniyatov arab geograflari va sayyohlari asarlarida, jumladan, Ibn al-Asirda Gurganj "mahallalari", al-Juvaynida "Tanura", Yoqut Hamaviyda "Maydon" dahalari, "Qabilon" darvozasi kabi ma'lumotlarni esga olgan [1,102].

Yevropa bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida Xorazm tayanch vazifasini bajargan. Gurganch hududiy-siyosiy va etnik markaz sifatida xalqaro karvon yo'li taraqqiyotida yetakchi bo'lgan. Xorazmdan boshlanib Qoraqum sahrosi, Ustyurt dashti qirlari orqali o'tgan savdo yo'llarida to'xtash, dam olish manzilgohlari, karvon saroylar, sersuv quduqlar, sardobalar qurish bilan birga, dehqonchilik vohalarida chegara qo'rg'oni va shaharlar barpo etilgan.

Xorazm vohasi o'rta asr sivilizatsiya jarayonlarini o'rganishda markaziy hududlardagi shaharsozlik madaniyati tarixini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Chunki bu o'rta asrdagi shaharlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniyat tarixida muhim hususiyatlari bor. Buyuk Xorazmshohlar davlati davrida Qat, Gurganj, Xazorasp, Xiva, Samarqand, Termiz, Axsikent, Buxoro, Qarshi, Marv kabi shaharlari iqtisodiy va madaniy markazlar bo'lgan. Bu shaharlar XI-XIII asr boshlarida har tomonlama rivojlangan. Yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar bu hududda 20 dan ortiq shaharlarning mavjudligini ko'rsatadi [2,172]. Yuqorida qayd qilingan shaharlarning madaniy-xo'jalik markaz sifatidagi omillar: suv manbalari, geografik o'rin qulayligi, aholi

bnyodkorligi, savdo karvonlari qo'nim topgani, chegara hududlariga nisbatan tinch ekanligidir. Tarixiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm Mavoraunnahrni Azov va Qora dengiz bo'ylari va slavyan xalqlari bilan iqtisodiy-madaniy jabhalarda bog'lab turuvchi xalqaro savdo-karvon yo'liga joylashganligi qulay bo'lib, Xorazm xalqaro bozorda o'z mavqeiga ega bo'lgan [3,415].

Xorazm vohasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan shaharlar taraqqiyoti, ayniqsa Xorazmshoh – Anushteginiylar davrida yaqqol ko'zga tashlanadi.

XIII asr boshiga kelib Xorazmshohlar davlatiga 27 yirik viloyat bo'ysundirilib, uning hududlari nihoyatda kengayib, g'arbda Iroqdan sharqda Hindistongacha, shimolda Orol dengizidan janubda Hind okeanigacha cho'zilib ketgan edi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi, tabiiy ravishda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda ijobiy o'zgarishlar sodir etilishiga sabab bo'lishi aniq edi. Shu sababli arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko'ra, sun'iy sug'orishga katta e'tibor berilib, vohalar imkonidan, iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilik rivojlanishida uzilish bo'lmagan. Shu o'rinda Xorazmshoh-anushteginiylar davri xo'jalik taraqqiyotining qay darajada bo'lganligini tasavvur etish uchun, mo'g'ul istilosi arafasida (1219-1220 yillarda) Xorazmda bo'lgan mashhur arab sayyohi Yoqut al-Hamaviy o'zining geografik qomusi "Mu'jam al-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati") asarida Xorazm to'g'risida keltirib o'tgan bir fikrini keltirib o'tilsa kifoya qiladi. U bunday deb yozadi: "Men u yerga 616 yili (1219-1220 y.) borgan edim, hech qayerda bunday gavjum va yashnagan o'lkani ko'rmaganman. Ekinlari yoppasiga parvarish qilingan, qishloklari bir-biriga yaqin qatorlashib ketgan, alohida hovliyu chorbog'lari ko'p, dashtda ham qo'rayu qo'rg'onlar bor. O'lkaning rustoqlarida (dehqonchilik tumanlarida) parvarishlanmagan, noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa, gujumu tut ko'p, chunki ular (aholi) qurilish yog'ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga yemdir. Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida yurasanmi (aholi ko'pligi jihatidan) - buning farq yo'q. Dunyoning hech bir yerida Xorazmdan farovon va aholisi gavjum bo'lmasa kerak. Xorazmning ko'pchilik aholi manzillari – bozorlarga, hayotiy zarur narsalarga mo'l-ko'l, rastalari ko'p shaharlardir. Bozori bo'lmagan qishloq kamdan-kamdir. Bularning hammasi umumiy xavfsizlikda va tinchlik-hotirjamlikda amalga oshmoqda" [4,419].

Buni arxeologik ma'lumotlar ham to'liq tasdiqlaydi. Buyuk Xorazmshohlar davrida sug'orish tarmoqlari ancha uzaytirildi. Masalan, Ma'muniylar davrida Zamahshar shahriga yetgan Chermonyop kanali, XII asrda yana 70 km ga uzaytirilib, hozirgi Shohsanam shahar-yodgorligigacha (o'rta asr manbalaridagi Suburna) yetkazildi. Mo'g'ul bosqini arafasida, ayniqsa, o'ng qirg'oq Xorazmning Gavxore kanali atroflari ancha taraqqiy qildi. Bu davr Xorazm shaharlari o'rta asr shaharlariga xos barcha xususiyatlarni o'zida mujassam qildi.

Mo'g'ullar istilosi arafasidagi Xorazm shaharlari qiyofasi to'g'risida o'rta asr manbalarida ham eslatib o'tiladi. Masalan, fors tarixchisi Zakariyo ibn Muhammad al-Kazviniyning yozishicha: "har bir shahar o'rtasida yana bir kichik shahar bo'lgan. Kichik shaharning o'rtasi qo'handiz atalgan. Markazdagi kichik shaharlarni shahriston yoki arabcha madinat us-sug'ro (kichik shahar) deb ataganlar. Uning atrofi devor bilan o'ralgan va bir necha darvozalari bo'lgan. Shahriston atrofida katta shahar (madinat ul-kubro) bo'lib, u ham devor bilan o'ralgan va bir necha darvozalari bo'lgan. Katta shahar atroflarida esa uzumzorlar va mevali bog'lar, ularning tevaragida – ekinzor dalalar bor edi" [5,134].

### **TADQIQOT NATIJALARI.**

Shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik g'oyatda rivojlangan. O'lkada ishlab chiqarilgan turli xildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam-poyonoz, teri, jun, yog'-moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabdug'lar, ho'l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko'plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda haridorgir edi. Arxeologik tadqiqotlar davomida Xorazmshohlar shahar-yodgorliklaridan turli xil hunarmandchilik mahsuloti qoldiqlari, butun-butun hunarmandchilik mahallalari – kulolchilik, degrezlik, misgarlik,

temirchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, shishagarlik va shu kabi mahallalari topildi. Manbalarda hunarmandchilikning 50 ga yaqin turi rivojlanganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida xorazmshohlar davri yodgorliklaridan ko‘plab xitoylik ustalar tayyorlagan chinni idishlar parchalarining topilishi ham bu fikrni to‘la tasdiqlaydi. Tashqi va ichki savdo yo‘llari kesishgan joyda va muhim, qulay mavqega ega bo‘lgan xorazmshohlar poytaxti Gurganj (Jurjoniya) yuqorida ta‘kidlanganidek, bu davrda nafaqat Movarounnahr, balki yalpi o‘rta asrlar Sharqining eng yirik shaharlaridan biriga aylandi [4,419].

Zakariyo Qazviniy esa Gurganj haqida so‘z yuritar ekan, uni Jayxun daryosi bo‘yidagi juda katta shahar, aholisi juda ko‘p, deb ta‘riflaydi va: “jannatdagi shaharni va chimildiqdagi kelinchakni qo‘riqlaganday, farishtalar qo‘riqlaydi”, -deb yozgan edi [5,135].

Gurganjda o‘sha zamonlardagi barcha kasb-hunarlar taraqqiy etgan edi. Yana o‘sha Zakariyo Qazviniyning yozishicha, Gurganjda mohir ustalar, ayniqsa, temirchilar, duradgorlar va boshqa hunar egalari o‘z kasbida barkamol edilar. Gurganj naqqoshlari fil suyagidan va sandal daraxtidan ajoyib naqshlar yasalar edilar. Gurganj ayollari chevarlikda mohir edilar, ipakchilar tabiiy ipakning oliy navini yetishtirgan. Binokor-quruvchilar tol og‘ochidan shunday yengil (sinchli) binolar qurur edilar, bu yerda tez-tez bo‘lib turadigan zilzila paytida tosh va g‘ishtin uylar qulasa ham, sinchli uylarga ziyon yetmas edi. Gurganjda aholi ko‘pligidan ko‘chalar, bozorlarda odamlar bir-biriga urilar, o‘tish qiyin edi [5,135].

Xorazmshoh – anushteginiylar davri ikkinchi yirik shahri Ardaxushmisan (yoki Xushmisan; hozirgi Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Voyangan yodgorligi) ham bozorlari gavjum va aholisi farovon katta shahar bo‘lgan.

Ardaxushmisanda 1219-1220 yillarda bo‘lgan Yoqut Hamaviy, u haqda yozib, bozorlari, mahalliy mollari ko‘pligi, aholisi badavlat bo‘lganligini ko‘rsatadi, uni Suriyaning yirik shaharlaridan Nisibin bilan tenglashtiradi, ammo Ardaxushmisan undan aholisi ko‘proq va muhtashamroq ekanligini ta‘kidlaydi [4,410]. Ardaxushmisan o‘rnidagi hozirgi Voyangan yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar manbalardagi fikrlarni to‘la tasdiqlab, Ardaxushmisanning o‘rta asrlarda yirik savdo-hunarmandchilik markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi [6,86-93].

Maqdisiy va Istaxriy asarlarida ham (ya‘ni X asrda) katta, boy shahar deb eslatib o‘tilgan Xiva xorazmshohlar davrida o‘zining eng gullab-yashnagan davrini boshdan kechirgan. Shu davrda Xorazmdan o‘tgan barcha tashqi va ichki savdo yo‘llarining Xivadan o‘tganligi uning taraqqiy qilishiga imkon bergan. Bundan tashqari, Xiva atroflarini sug‘organ Xeykonik (Polvonyop) kanalidan kemalar qatnab, nafaqat ichki, balki tashqi savdoda ham muhim rol o‘ynagan. Xivaning XII-XIII asrlarda yirik savdo markazlaridan biri bo‘lganligini arxeologik ma‘lumotlar ham tasdiqlaydi [7,43-51].

1219-1220 yillarda Xorazmda bo‘lgan Yoqut Hamaviy Hazorasni mustahkam qal‘a, go‘zal va bozorlari, rastalari ko‘p bo‘lgan yirik savdo shahri sifatida eslatib o‘tgan [4,419].

Asosiy savdo yo‘llaridan birida joylashgan Darg‘on, ulkan xorazmshohlar davlati vujudga kelishi bilan, ayniqsa, rivojlangan. Chunki savdo-sotiqning rivojlanishiga zamin tayyorlovchi siyosiy barqarorlikning ta‘minlanishi, Darg‘onning Buyuk Ipak yo‘lining ham shimoliy, ham janubiy tarmoqlaridagi yo‘llarning muhim tuguniga aylanishiga olib kelgan. Yoqut Hamaviy ham Darg‘onni yirik savdo markazi sifatida tilga olib o‘tadi [4,419].

Dovdon havzasi bo‘yida joylashgan va yirik Madra (G‘azovot) kanali bilan sug‘orilgan Zamaxshar hududi XII-XIII asrlarda Xorazmning dehqonchilik eng rivojlangan va aholisi zich joylashgan markazlardan biriga aylangan. Zamaxsharning X asrdayoq yirik hunarmandchilik markazi bo‘lganligini yuqorida ta‘kidlagan edik. Umuman, Dovdon havzasidan to Daryolik o‘zanigacha bo‘lgan hududlar va ulkan Chermonyop kanali atroflari (Zamahshar, Dovdonqal‘a, Yorbakirqal‘a, Shoxsanam, Qo‘hna Uaz shaharlari joylashgan hududlar kiradi) xorazmshohlar davrida nafaqat Xorazmning, balki Movarounahrning ham aholi eng zich joylashgan hududlari jumlasiga kirib, hatto hozirgi kun darajasidan ham ortiq bo‘lgan. Agar buni taqqoslaydigan bo‘lsak, hozirgi kunda Xorazm viloyatida har bir kv.km ga 190,2 kishi to‘g‘ri kelgani holda, yuqorida keltirib o‘tilgan hududda har bir kv.km ga 400-500 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu ko‘rsatkich, hatto

O‘zbekistonning hozirgi kundagi aholi eng zich joylashgan hududi, Andijon viloyati ko‘rsatkichi bilan tengdir (Andijon viloyatida har 1 kv.km ga 475 kishi to‘g‘ri keladi). O‘ng qirg‘oq Xorazmning Xorazmshohlar davridagi aholi eng zich joylashgan hududi – Qavatqal’a hududida esa bu ko‘rsatkich har 1 kv.km ga 200-250 kishini tashkil qilgan [8,67; 9,147; 10,617;619].

Qo‘hna Urganchdan Zamaxshargacha bo‘lgan hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bu shaharlar oralig‘idagi o‘nlab kilometrlar boshdan oxirigacha imoratlarining izlari, g‘isht, sopol parchalari va hokazolar bilan qoplanganini, yuksak darajada taraqqiy qilgan dehqonchilik rustoqlari, kanallar izlarining mavjudligini ko‘rish mumkin [8,68-72; 11,41-45].

Suburna (Shohsanam), Sovkan (Olmaotishgan) savdo markazlari Yoqut Hamaviy asarlarida Movarounnahr va Xuroson bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlarida asosiy rol o‘ynovchi obod shaharlar bo‘lganligi ta’kidlanadi [4,423-424].

### XULOSALAR.

Yana bir yirik o‘rta asr shahri Puljoyda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar bu yodgorlikning IX-XI asrlarda vujudga kelganini, xorazmshohlar davrida esa (XII-XIII asrlar) bu yodgorlik ham chegara istehkomi, ham Xorazmning Volgabo‘yi va Sharqiy Yevropa bilan bo‘ladigan savdo yo‘lida joylashgan yirik savdo markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu savdo markazining ko‘chmanchilar bilan bo‘lgan savdo munosabatlaridagi o‘rni beqiyos bo‘lgan. Y.G‘.G‘ulomov va V.N.Yagodinlar bu savdo markazini arab manbalarida eslatilgan Git shahri bilan taqqoslaydilar [12,96; 13,159].

O‘ng qirg‘oq Xorazmning yana bir yirik savdo markazi Mizdahqon bo‘lib, X asrda Maqdisiy qadimda o‘ng qirg‘oq Xorazmdan o‘tgan uchta asosiy savdo yo‘li ham Mizdahqonga olib borganligini keltirib o‘tadi. X-XIII asrlarda ham bu shahar Xorazmning eng yirik savdo markazi hisoblangan. Movarounnahrning boy savdo shaharlari bilan bog‘lovchi uchta savdo yo‘li Mizdahqonda birlashib, keyinchalik Amudaryodagi asosiy kechuv yo‘li orqali Gurganjga borgan. Mizdahqon yana o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra ko‘chmanchilarga (ayniqsa, o‘g‘uzlarga) yaqin joylashganligiga ko‘ra uning ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdoda ham, eng muhim markazlardan biri bo‘lgan [14,206].

Xullas, XII asr o‘rtalaridan – XIII asr boshigacha bo‘lgan davr, ya’ni xorazmshoh-anushteginiylar davri, haqiqatan ham, Xorazm savdo markazlarining eng gullab yashnagan davri ekanligini shu davr manbalari ham, arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

### Iqtiboslar / References / Сноски

- [1] Буниятов З.М. Государство Хоразмшахов-Ануштегинидов. 1097-1231. -М.: «Наука». 1986. – 248 с.
- [2] Беленицкий А.М, Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. - Л: Наука,1973. – 394 с.
- [3] Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Т., “Ўзбекистон”, 2015. – 672 б.
- [4] Йакут ал-Хамави. Му’жам ал-булдан. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. – М.-Л.: Наука, 1939. – С.409-438.
- [5] Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. – 232 б.
- [6] Мамбетуллаев М., Кдырнязов М.-Ш. Городище Военган // Археология Приаралья. Вып.1. – Т.: «Фан», 1982, с.86-93.
- [7] Мамбетуллаев М.М., Ягодин В.Н. К оценке хронологии и исторической динамики культурного слоя древней Хивы. – ОНУ. – Т.: «Фан», 1986, №8, с.43-51.
- [8] Вишневецкая О.А. Археологические разведки на средневековых поселениях Левобережного Хорезма //МХЭ, Вып.7. –М.: «Наука», 1959, с.54-72.
- [9] Андрианов Б.В. Археолого-топографические исследования на землях древнего орошения Турткульского и Бирунийского районов Каракалпакской АССР в 1955—1956 гг.//МХЭ, вып.1. – С.143-149.

- [10] Ўзбекистон Республикаси. Энциклопедия. – Т.: 1997, 617; 649-бетлар.
- [11] Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма //МХЭ, вып.7, -М.: Изд-во АН СССР, 1963. с.41-53.
- [12] Ягодин В.Н. Некоторые вопросы исторической географии Приаральской дельты Амударьи в VII-XIV в. // В кн.: Археология Приаралья. Вып. III. – Т.: «Фан», 1986, с.73-109.
- [13] Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1959. -324 б.
- [14] Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. – М.-Л.: Наука, 1939. – С.184-209.
- [15] Язбердыев А. Ануштагин Гарча – основатель династии хорезмских правителей.// Мирас. 2017, № 2. – С. 36 – 59.
- [16] Язбердыев А. Избранные статьи. В 10-ти томах. Т. III. – Ашгабат: “Ылим”, 2012. – С. 163-168, 178-180.
- [17] Байрамов М. Об этнической принадлежности Джелал ад-дина Менгуберди и династии хорезмшахов-ануштегединов. - Ашхабад, 2018// [http://turkmenhorezm.blogspot.com/2018/07/blog-post\\_31.html?view=timeslide](http://turkmenhorezm.blogspot.com/2018/07/blog-post_31.html?view=timeslide).
- [18] Anūštigin Ġarča’ī. – Encyclopaedia Iranica.Vol. II, Fasc. 2, p. 140.August 5, 2011// <https://iranicaonline.org/articles/anustigin-garcai-slave-commander>.
- [19] Kafesoğlu I. *Harezmsahlar devleti tarihi (485-617/1092-1229)*, Ankara, 1956, pp. 36f.
- [20] Kafesoğlu I. *Sultan Melikşah devrinde Büyük Selçuklu imparatorluğu*, Istanbul, 1953, pp. 20, 145.
- [21] Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – 612 с.
- [22] Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёкубов таржимаси./ – Т.: О‘zbekiston, 2006. – 384 б.
- [23] Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.
- [24] Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.
- [25] Ṭabakāt-i-Nāširī: A General History of the Muhammadan Dynasties of Asia, Including Hindustan; from A.H. 194 (810 A.D.) to A.H. 658 (1260 A.D.) and the Irruption of the Infidel Mughals into Islam / by Minhāj-ud-dīn, Abū-’Umar-i-’Usmān; transl. from original Persian manuscripts by H.G. Raverty. Vol. I. London: Printed by Gilbert & Rivington, 1881. lxiv, pp.240.
- [26] Pelliot P. A propos des Comans // Journal Asiatique. 1920. XI série. T. XV. № 1. P. 87-89, 91-92, 125–185.
- [27] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Том 1. – М.: Изд.Восточной литературы, 1963. – 763 с.
- [28] Бартольд В.В. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Сочинения. Том 5. – М.: Наука, 1968. – 759 с.
- [29] Толстов С.П. Города гузов (Историко-этнографические этюды) //СЭ., 1947, №3, с.55-102.
- [30] Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Т.: Ўқитувчи,1994. – 429 б.
- [31] Абулғозий. Шажарайи турк. –Т.: Чўлпон, 1992. – 125 б.
- [32] Вамбери Херман. Бухоро ёхуд Моварауннахр тарихи. – Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 1990. – 128 б.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000